

BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Shodiyeva Mehribon Amin qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matnlarning berilishi hamda ularning ilmiy-uslubiy xususiyatlari bayon qilingan. Matn tahlili jarayonida e'tibor qilish kerak bo'lgan ayrim jihatlar aytib o'tilgan. Lingvistik tushunchalarning matn ustida ishlash jarayoni bilan bog'liq bo'lgan tomonlari o'zaro tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Lingvistik tushuncha, mantiqiy fikrlash, og'zaki nutq, matn turlari, integratsiya, audio qo'llanmalar, interaktiv ta'lim vositalari, raqamli texnologiya, kreativlik, didaktik topshiriq.

ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ НАД ТЕКСТОМ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Шодиева Мехрибон Амин кизи

*Независимый исследователь Бухарского государственного
педагогического института*

Аннотация. В статье описывается представление текстов в начальных классах и их научно-методическая характеристика. Упоминаются некоторые аспекты, которые следует учитывать в процессе анализа текста. Анализируются аспекты лингвистических концептов, связанные с процессом работы над текстом.

Ключевые слова: лингвистический концепт, логическое мышление, устная речь, типы текстов, интеграция, аудиогиды, интерактивные образовательные средства, цифровые технологии, креативность, дидактическая задача.

FEATURES OF WORKING ON THE TEXT IN NATIVE LANGUAGE LESSONS IN PRIMARY SCHOOL

Anotation. This article describes the presentation of texts in primary grades and their scientific and methodological characteristics. Some aspects that should be considered in the process of text analysis are mentioned. The aspects of linguistic concepts related to the process of working on the text are analyzed.

Keywords: Linguistic concept, logical thinking, oral speech, text types, integration, audio guides, interactive educational tools, digital technology, creativity, didactic task.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirishda matn ustida ishlash jarayoni muhim ahamiyatga ega. Birgina matn orqali o'quvchilarda to'g'ri o'qish, tahlil qilish, mulohaza yuritish, mantiqiy fikrlash, axborotlar bilan ishlay olish qobiliyati rivojlanadi. bunda ko'proq o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalariga urg'u beriladi. Lingvistik tushunchalarni to'g'ri anglash va bir-biridan farqlay olish orqali o'quvchilarda so'z boyligi ortadi. Berilgan matnni tahlil qilishda uning qaysi turga mansubligi, ifodalangan g'oya va hayot bilan qay darajada bog'liqligi kabi xususiyatlarini ham inobatga olish lozim. Badiiy, ma'lumot mazmunidagi yoki dialog shaklidagi matn bo'ladimi ularning turidan kelib chiqqan holda qo'shimcha topshiriqlar ishlab chiqiladi. Matnda berilgan notanish so'zlar ma'nosi, imlosi, qo'llanish doirasi va tarkibiy qismi alohida yondashuvni talab qiladi. Matnda aks etgan ma'lumotlarni mazmuniga mos holda boshqa fanlar bilan integratsiya qilish maqsadga muvofiq. Audio va video shaklidagi qo'llanmalardan foydalanish orqali darsning qiziqarli bo'lishini ta'minlash mumkin. Ko'rish, eshitish sezgilarining bir vaqtda rivojlanishi o'quvchilarning kompetensiyaviy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, interaktiv ta'lim vositalari, raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali analiz va sintez qila olish ko'nikmalari rivojlanadi. To'g'ri tanlangan matn hamda faol tuzilgan topshiriqlar o'quvchilarda bir qator kompetensiyalarni shakllantiradi,

ya'ni kommunikativ, axborotlar bilan ishlay olish, ijodiy, ijtimoiy faol fuqarolik, o'z-o'zini rivojlantirish kabi.

Matn tahlilini amalga oshirishda matnga o'zgacha yondashuv asosida qayta hikoyalash, jumladan, sarlavha topish, xulosaviy maqol aytish, boshqacha yakun yasash yoki davom ettirish kabi vazifalarni bajarish o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini o'stirish uchun muhim ahamiyatga ega. Bunda differensial yondashuv asosida to'g'ri tanlangan faol metodlar darsning sifat va samaradorligini belgilab beradi. Matn tahlilida uni qismlarga bo'lish, rollarga bo'lib o'qish, har bir qismni xulosalash o'quvchilarning tasavvur imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Individual yoki jamoaviy topshiriqlarda ko'proq muammoli vaziyatlar yaratish mustaqil fikrlash va o'z fikrini aniq ifodalay olishda katta yordam beradi. Matn qahramonlari o'rnida bo'lib ko'rish, ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash, mavzuning bugungi kundagi dolzarblik darajasini aniqlash hamda hayotiy voqealar bilan taqqoslash ham o'quvchilarda kreativ qobiliyatlarni shakllantiradi. Matnning qay darajada tushunarli tahlil qilinganligi o'quvchilarning tasavvur qilish va ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon qila olishida ko'rinadi. So'z va so'z birikmalarining hosil qilinishi, tarkibi, tuzilishi hamda gap bo'lib shakllanishida lingvistik bilimlarning to'g'ri ketma-ketlik asosida berilishi muhim ahamiyatga ega. Tahlil jarayonida har bir o'quvchining turli yondashuvi natijasida o'quvchilar dunyoqarashi kengayib, jamoada ishlay olish, muloqot ko'nikmalari shakllanib boradi. Darslikdan tashqaridagi alohida matnni tanlab olish, o'quvchilarga bir marta o'qib berish va uni qayta bayon qilishni vazifa sifatida berish orqali ularning ma'lum mavzuga nisbatan o'z fikrlari, hissiyatini bildira olish qobiliyatlarini ko'rishimiz mumkin. Tahlil uchun tanlangan matn, qo'llaniladigan metodlarning o'quvchilar saviyasi, yosh xususiyatlari, qiziqishiga mos ekanligiga ahamiyat qaratish zarur. Vazifalar berishda ham turli usullarning kompleks holda berish orqali o'quvchilarda bir nechta qobiliyatlarni bir vaqtda rivojlanishiga erishish mumkin. Og'zaki va yozma nutq rivoji bevosita matn tahlili jarayoni bilan bog'liq

holda amalga oshiriladi. Zero, “grammatika” dastavval “o‘qish va yozishni o‘rganish” ma’nosida qo‘llangan. O‘quvchilarda lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishda matn turlarini taqqoslay olish, har bir qismda ifodalangan ma’noviy va grammatik xususiyatlarni tahlil qila olish kabi amaliy topshiriqlar yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi. M.Rixsiyeva, D.Toshxo‘jayeva, H.Ne‘matov, A.G‘ulomov, T.Ziyodova kabilarning ilmiy-tadqiqot ishlarida matn tahlili jarayonining ahamiyatli jihatlari haqida juda ko‘plab fikrlar bayon qilingan.

Matn ustida ishlash jarayonida bir so‘zning turli ma’no qirralari va uslubiy xususiyatlarini bilish orqali o‘quvchilarda ravon nutq elementlari shakllanib boradi. Masalan, matndagi ajratib olingan so‘zlarning omonim, sinonim, antonimlarini topish, qo‘llanish doirasi bo‘yicha o‘zaro farqlash orqali o‘quvchilarda so‘z boyligi yana-da ortib, lingvistik bilimlari, mantiqiy dunyoqarashi kengayib boradi. Muhimi darsdan ko‘zlangan maqsadga erishish, ya’ni matn tahlili orqali o‘quvchilarda til birliklarining shakllanishi, og‘zaki va yozma nutqining rivojlanishi, lingvistik tushunchalarni o‘zaro farqlay olish kabi ko‘nikmalarni hosil qila olishdir. Ayniqsa, so‘zni turkumlarga ajrata olish, sintaktik jihatdan to‘g‘ri qurish, badiiy tasvir vositalarining uslubiy xususiyatlarini oson tarzda tushunish va morfemik jihatdan tahlil qila olish juda muhim. O‘quvchilarning matnga mustaqil holda xulosa yasay olishi, savollarga javob berishi yoki savol tuzishi, obrazlarni o‘zaro taqqoslay olishi ularning mantiqiy tafakkurini ifodalab beradi. Matnni tahlil qilishda har bir qo‘llangan metod yoki didaktik topshiriq ma’lum bir maqsadni ko‘zlashi lozim, masalan, o‘qishda ohangga e’tibor berish, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, savol-javob orqali tushunish, mulohaza qilishni tekshirish, gaplarni taqqoslashda grammatik va morfologik bilimlarning mavjudligini aniqlash kabilar. Oxirida esa, albatta, kerakli xulosani chiqarish va bugungi kundagi ahamiyatini anglay olish lozim.

Xulosa sifatida shuni aytilish joizki, boshlang‘ich sinflarda tilga oid tushunchalarni shakllantirish va ularni to‘g‘ri qo‘llay olishda matn tahlili muhim

ahamiyatga ega. Ayniqsa, lingvistik bilimlarga poydevor yaratishda to'g'ri tanlov asosida olingan matn va uning tahlil jarayoni juda zarur. Ushbu jarayonning to'g'ri tashkil qilinishi o'quvchilarning so'z va uning qo'llanishiga oid bilimlarning kengayishiga va tilga sezgirlikning shakllanishiga sabab bo'ladi. Matn tahlilini amalga oshirishda kreativ metodlar va topshiriqlar o'quvchilarning savodxonlik darajasini oshirib, lingvistik bilimlarini mustahkamlaydi. Savol-javob, kuzatish, tahlil qilish, kerakli tushunchani ajratib olish, gaplarni mazmunli va to'g'ri tuzish, matnni qismlarga ajratish, xulosa qila olish, kabilar o'quvchilarda analitik-sintetik bilimlarning shakllanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kurbanova M., Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi, Toshkent "Universitet", 2014.
2. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
3. M.A.Shodiyeva. Boshlang'ich sinf ona tili darslarini sifatli tashkil etishda samarali chora-tadbirlar. Arxitektura, qurilish va muhandislik sohalarida zamonaviy qurilish materiallari va texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. 16-17-may, 2025-yil, 436-bet.
4. M.A.Shodiyeva. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida lingvistik mashqlarning o'rni va ahamiyati. Maktabgacha va maktab ta'limi. 2025-yil, aprel, №4-son, 474-bet.
5. M.A.Shodiyeva. Boshlang'ich sinf darsliklaridagi matnlar tahlili(2-sinf darsligi misolida). Ta'lim transformatsiyasi ilmiy – metodik jurnal. Buxoro – 2025, 103-bet.
6. F.N.Abdullayeva,M.A.Shodiyeva. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida lingvistik topshiriqlar mazmuni. O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning

istiqbollari va muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami.
Buxoro-2025, 119-bet.